

Oriental Journal of Education



EMOTION-BASED ESP (ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) INSTRUCTION: THE IMPACT OF FINANCIAL ANXIETY ON LANGUAGE ACQUISITION

Feruzakhon Khodjiakbarovna Yunusova

Senior Lecturer at the Department of Foreign Language Education

Tashkent State University of Economics, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

E-mail: yunusovaferuza1981@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ESP instruction, foreign language anxiety, financial anxiety, emotional factors, language acquisition, FLCAS.

Received: 23.12.25

Accepted: 24.12.25

Published: 25.12.25

Abstract: This article examines the impact of emotional factors, particularly foreign language anxiety and financial anxiety, on language acquisition within the context of English for Specific Purposes (ESP) instruction. The study was conducted among 156 students of Tashkent State University of Economics using a questionnaire, the Foreign Language Classroom Anxiety Scale (FLCAS), and a financial anxiety scale. The findings reveal a significant positive correlation between financial anxiety and foreign language anxiety, indicating that financial stress negatively affects students' language learning processes. The results highlight the importance of incorporating emotional and psychological considerations into effective ESP teaching practices.

HISSİY OMILLARGA ASOSLANGAN ESP (MAXSUS MAQSADLAR UCHUN INGLIZ TILI) TA'LIMI: MOLİYAVIY XAVOTIRNING TILNI O'ZLASHTIRISH JARAYONIGA TA'SIRI

Feruzaxon Xodjiakbarovna Yunusova

Xorijiy tillar ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: yunusovaferuza1981@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ESP ta'limi, foreign language anxiety, moliyaviy xavotir, hissiy omillar, tilni o'zlashtirish, FLCAS.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ESP (English for Specific Purposes) ta'limi jarayonida talabalar hissiy holatiga ta'sir etuvchi omillar, xususan, chet tilini o'rganishdagi xavotir

va moliyaviy xavotirning ingliz tilini o'zlashtirish jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tahsil olayotgan 156 nafar talaba ishtirokida o'tkazilib, anketa, Foreign Language Classroom Anxiety Scale (FLCAS) hamda moliyaviy xavotir shkalasi orqali empirik ma'lumotlar to'plandi. Natijalar moliyaviy xavotir va chet tilini o'rganishdagi xavotir o'rtasida sezilarli musbat bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Olingan xulosalar ESP ta'limida hissiy omillarni hisobga olgan holda pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ (ESP) С УЧЁТОМ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ: ВЛИЯНИЕ ФИНАНСОВОЙ ТРЕВОЖНОСТИ НА ПРОЦЕСС УСВОЕНИЯ ЯЗЫКА

Ферузахон Ходжиакбаровна Юнусова

Старший преподаватель кафедры обучения иностранным языкам

Ташкентского государственного экономического университета

доктор философии по филологическим наукам (PhD)

E-mail: yunusovaferuza1981@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: ESP, тревожность при изучении иностранного языка, финансовая тревожность, эмоциональные факторы, усвоение языка, FLCAS.

Аннотация: В статье рассматривается влияние эмоциональных факторов, в частности тревожности при изучении иностранного языка и финансовой тревожности, на процесс усвоения английского языка в рамках обучения ESP (English for Specific Purposes). Эмпирическое исследование проведено среди 156 студентов Ташкентского государственного экономического университета с использованием анкетирования, шкалы Foreign Language Classroom Anxiety Scale (FLCAS) и шкалы финансовой тревожности. Результаты выявили значимую положительную корреляцию между финансовой тревожностью и тревожностью при изучении иностранного языка. Полученные данные подтверждают необходимость учета эмоциональных и социальных факторов при организации обучения ESP.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida ingliz tilini maxsus maqsadlar uchun o'qitish (English for Specific Purposes – ESP) ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. ESP

ta'limi o'rganilayotgan tilni muayyan kasbiy, akademik yoki ijtimoiy ehtiyojlarga mos holda egallashni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u til bilimlari bilan bir qatorda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, iqtisodiyot, moliya, biznes va menejment kabi sohalarda ingliz tilini egallash professional muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda tilni o'zlashtirish jarayonini faqat lingvistik yoki metodik jihatdan emas, balki psixologik va hissiy omillar bilan bog'liq holda o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, til o'rganish jarayonida o'quvchilarning emotsional holati, motivatsiyasi, stress darajasi va xavotir hissi ularning akademik natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, chet tilini o'rganishda yuzaga keladigan xavotir (foreign language anxiety) til ko'nikmalarining shakllanish jarayonini sekinlashtiruvchi muhim psixologik omil sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur kontekstda moliyaviy xavotir alohida e'tiborga loyiq hodisa hisoblanadi. Talabalarning moddiy holati, kontrakt to'lovlari, o'qish bilan bir qatorda ishlash majburiyati, kelajakdagi bandlik masalalari bilan bog'liq xavotirlar ularning o'quv faoliyatiga, jumladan, ESP fanlarini o'zlashtirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Moliyaviy bosim sharoitida ta'lim olayotgan talabalar ko'pincha diqqatni jamlashda, faol ishtirok etishda va tilni amaliy qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shunga qaramay, ESP ta'limi doirasida hissiy omillar, ayniqsa moliyaviy xavotirning tilni o'zlashtirish jarayoniga ta'siri masalasi yetarli darajada chuqur va tizimli o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotlar umumiy chet tilini o'rganishdagi psixologik omillarga qaratilgan bo'lib, kasbiy yo'naltirilgan ESP muhitida bu muammoga kam e'tibor qaratilgan. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Adabiyotlar sharhi. Chet tilini o'zlashtirish jarayonida psixologik va hissiy omillarning o'rni tilshunoslik, pedagogika va ta'lim psixologiyasi fanlarida keng tadqiq etilgan masalalardan biridir. Xususan, foreign language anxiety (chet tilini o'rganishdagi xavotir) tushunchasi tilni o'zlashtirish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim affektiv omil sifatida ilmiy adabiyotlarda e'tirof etilgan. Tadqiqotchilar til o'rganish jarayonida yuzaga keladigan xavotir o'quvchilarning nutq faolligi, tinglab tushunish, yozma va og'zaki ko'nikmalarining rivojlanishiga to'sqinlik qilishini ta'kidlaydilar. "Foreign language anxiety" ko'pincha muloqotdan qo'rqish, baholanishdan xavfsirash va xatoga yo'l qo'yishdan cho'chish kabi komponentlardan tashkil topgan murakkab psixologik holat sifatida tavsiflanadi. Ushbu xavotir turi tilni o'rganishda bilim va ko'nikmalarining yetishmasligi bilan emas, balki shaxsning emotsional holati bilan bog'liq ekanligi ilmiy ishlarda qayd etilgan. Shu sababli, zamonaviy tadqiqotlarda til o'rganish jarayonini affektiv filtr nazariyasi asosida tushuntirishga intilish kuchaymoqda.

ESP (English for Specific Purposes) ta'limi doirasidagi ilmiy tadqiqotlar esa asosan tilni kasbiy va akademik ehtiyojlarga moslashtirish, autentik materiallardan foydalanish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalariga qaratilgan. ESP yondashuvida o'quvchilarning kasbiy

motivatsiyasi yuqori bo'lishiga qaramay, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan psixologik bosim va hissiy omillar yetarlicha hisobga olinmasligi mumkin. Ayniqsa, murakkab terminologiya, yuqori talablar va vaqt bosimi talabalar orasida xavotir darajasini oshirishi ehtimoli mavjud. So'nggi yillarda ESP va foreign language anxiety o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Ushbu tadqiqotlarda ESP muhitida xavotirning o'ziga xos shakllari mavjudligi aniqlanib, ularning umumiy chet tili ta'limidan farqli jihatlari ko'rsatib berilgan. Jumladan, kasbiy nutqda xatoga yo'l qo'yishdan qo'rqish, mutaxassislikka oid terminlarni noto'g'ri qo'llash xavfi va professional imidjga putur yetkazishdan xavfsirash ESP talabalari uchun xos bo'lgan affektiv omillar sifatida qayd etiladi.

Mazkur muammo moliyaviy omillar bilan yanada murakkablashadi. Ta'lim jarayonida talabalar duch keladigan moliyaviy xavotir — kontrakt to'lovlari, moddiy ta'minot yetishmasligi, ishlash va o'qishni birgalikda olib borish zarurati — ularning psixologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy stressning akademik natijalarga salbiy ta'siri ko'rsatib berilgan bo'lsa-da, uning aynan ESP ta'limida tilni o'zlashtirish jarayoniga ta'siri masalasi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar foreign language anxiety va ESP ta'limi alohida yo'nalishlar sifatida keng tadqiq etilganini ko'rsatsa-da, moliyaviy xavotirning ESP muhitida chet tilini o'zlashtirishga ko'rsatadigan ta'siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilinmagan. Ushbu holat mazkur maqolaning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilab, hissiy omillarga asoslangan ESP ta'limini takomillashtirish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot ESP (English for Specific Purposes) ta'limi jarayonida talabalar duch keladigan hissiy omillar, xususan, chet tilini o'rganishdagi xavotir (foreign language anxiety) va moliyaviy xavotirning ingliz tilini o'zlashtirish jarayoniga ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda miqdoriy (quantitative) va tavsifiy-analitik yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Mazkur tadqiqotda talabalarining ESP (English for Specific Purposes) fanini o'zlashtirish jarayonida ularning hissiy holati, motivatsiyasi va moliyaviy omillar bilan bog'liq xavotir darajasini aniqlash maqsadida maxsus ishlab chiqilgan anketa (so'rovnoma) asosiy diagnostik vositalardan biri sifatida qo'llanildi. Ushbu anketa tadqiqot muammosining mohiyatidan kelib chiqib, talabalar shaxsiy va o'quv faoliyatiga oid bir qator muhim psixologik hamda ijtimoiy ko'rsatkichlarni aniqlashga qaratildi.

Tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan anketa, avvalo, talabalarining ESP faniga bo'lgan munosabatini aniqlashni ko'zda tutdi. Bu yo'nalishda talabalarining fan mazmuniga qiziqishi, kasbiy faoliyatida ingliz tilining ahamiyatini anglash darajasi hamda ESP darslarining ularning kelajakdagi kasbiy rejalari bilan bog'liqligi baholandi. Ushbu ko'rsatkichlar talabalarining ESP ta'limiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatini aniqlash orqali o'quv jarayonidagi psixologik fonni tushunishga imkon berdi. Anketaning keyingi blokida o'quv motivatsiyasi bilan bog'liq savollar joylashtirildi. Ushbu savollar orqali talabalarining ichki va tashqi motivatsiya omillari, o'qishga bo'lgan intilishi, dars

jarayonida faol ishtirok etish darajasi hamda mustaqil o'rganishga bo'lgan munosabati aniqlashtirildi. O'quv motivatsiyasining yuqori yoki past darajada bo'lishi, o'z navbatida, talabalar hissiy holati va xavotir darajasi bilan uzviy bog'liq ekanligi tadqiqot doirasida hisobga olindi.

Anketada alohida e'tibor o'zini baholash darajasini aniqlashga qaratildi. Talabalar o'zlarining ingliz tilidagi bilim va ko'nikmalarini qanday baholashlari, ESP terminologiyasidan foydalanishdagi ishonchi, og'zaki va yozma nutqda o'zini erkin his qilishi kabi jihatlar orqali ularning o'ziga bo'lgan ishonch darajasi o'lchandi. O'zini past baholash holatlari ko'pincha til o'rganish jarayonida xavotirning kuchayishiga olib kelishi mumkinligi inobatga olindi. Shuningdek, anketa moliyaviy holat va moliyaviy xavotir hissini aniqlashga qaratilgan savollarni ham o'z ichiga oldi. Talabalarining kontrakt to'lovlari, o'qish bilan birga ishlash zarurati, moddiy ta'minot yetishmasligi hamda kelajakdagi moliyaviy barqarorlikka oid tashvishlari ularning o'quv faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani aniqlashtirildi. Bu omillar ESP ta'limi jarayonida talabalar hissiy holatining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi.

Anketa yopiq va yarim ochiq savollardan tashkil topib, javoblar 5 ballik Likert shkalasi (1–5) asosida baholandi. Ushbu baholash tizimi olingan natijalarni miqdoriy jihatdan tahlil qilish, umumiy tendensiyalarni aniqlash hamda boshqa diagnostik vositalar natijalari bilan qiyoslash imkonini berdi. Natijada, anketa talabalarining hissiy holati va moliyaviy xavotirining umumiy fonini aniqlashda muhim va ishonchli tadqiqot vositasi sifatida xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida anketa, Foreign Language Classroom Anxiety Scale (FLCAS) hamda moliyaviy xavotir shkalasi orqali to'plangan empirik ma'lumotlar matematik-statistik tahlil asosida qayta ishlandi. Tajriba-sinov ishlari Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tahsil olayotgan 156 nafar talaba ishtirokida o'tkazildi. Ishtirokchilar ESP fanlarini o'rganayotgan bo'lib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati va ta'lim sharoitlari tadqiqot maqsadlariga mos kelishi hisobga olindi.

1-jadval. Talabalarining chet tilini o'rganishdagi xavotir darajasi (n = 156)

Xavotir darajasi	Talabalar soni	Foiz (%)
Past	38	24,4 %
O'rta	71	45,5 %
Yuqori	47	30,1 %
Jami	156	100 %


Jadvaldan ko'rinib turibdiki, talabalarining asosiy qismi (45,5 %) o'rta darajadagi chet tili xavotiriga ega. Shu bilan birga, 30,1 % talabalarda xavotir darajasi yuqori ekanligi aniqlanib, bu ESP ta'limida hissiy omillarni e'tiborga olish zarurligini ko'rsatadi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida, avvalo, tavsifiy statistika usullaridan foydalanildi. Ushbu bosqichda respondentlarning javoblari asosida o'rtacha qiymatlar, foiz ko'rsatkichlari va umumiy taqsimot aniqlandi. Tavsifiy

statistika talabalar orasida chet tilini o'rganishdagi xavotir darajasi, moliyaviy xavotirning tarqalish darajasi hamda ESP faniga bo'lgan munosabatning umumiy tendensiyalarini aniqlash imkonini berdi. Bu usul tadqiqot natijalarining dastlabki umumiy manzarasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

2-jadval. Talabalarning moliyaviy xavotir darajasi

Moliyaviy xavotir darajasi	Talabalar soni	Foiz (%)
Past	42	26,9 %
O'rta	64	41,0 %
Yuqori	50	32,1 %
Jami	156	100 %

Keyingi bosqichda korrelyatsion tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu usul orqali talabalarining moliyaviy xavotir darajasi bilan FLCAS ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlashga harakat qilindi. Korrelyatsion tahlil moliyaviy bosim ostida bo'lgan talabalar orasida chet tilini o'rganishdagi xavotir darajasining qanchalik oshishini aniqlashga xizmat qildi. Ushbu tahlil natijalari moliyaviy omillarning ESP ta'limi jarayonida talabalarning emotsional holatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini empirik jihatdan asoslash imkonini berdi.



Rasm 1. Moliyaviy xavotir va chet tilini o'rganishdagi bog'liqlik.

Diagrammada gorizontal o'qda talabalarning moliyaviy xavotir ballari, vertikal o'qda esa FLCAS bo'yicha chet tilini o'rganishdagi xavotir ballari aks ettirilgan. Nuqtalarning yuqoriga yo'nalgan zich joylashuvi moliyaviy xavotir darajasi oshgan sari chet tilini o'rganishdagi xavotir ham ortib borishini ko'rsatadi. Ushbu vizual natija korrelyatsion tahlil orqali aniqlangan musbat bog'liqlikni

($r = 0,62$; $p < 0,01$) tasdiqlaydi hamda moliyaviy omillar ESP ta'limi jarayonida talabalar hissiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil usulidan ham foydalanildi. Bu usul yordamida turli xavotir darajasiga ega talabalar guruhlarini o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi. Xususan, moliyaviy xavotiri yuqori bo'lgan talabalar bilan moliyaviy xavotiri nisbatan past bo'lgan talabalar o'rtasida FLCAS ko'rsatkichlari, o'quv motivatsiyasi va o'zini baholash darajasidagi farqlar qiyoslandi. Qiyosiy tahlil natijalari moliyaviy omillarning tilni o'zlashtirish jarayoniga ta'sirini yanada aniqroq ko'rsatib berdi. Umuman olganda, qo'llanilgan matematik-statistik tahlil usullari ESP ta'limi jarayonida hissiy omillar, xususan, moliyaviy xavotirning talabalarning ingliz tilini o'zlashtirishiga ko'rsatadigan ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilishga imkon yaratdi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ESP (English for Specific Purposes) ta'limi jarayonida talabalar hissiy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, xususan, chet tilini o'rganishdagi xavotir (foreign language anxiety) va moliyaviy xavotirning ingliz tilini o'zlashtirish jarayoniga ta'sirini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot natijalari Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tahsil olayotgan 156 nafar talaba ishtirokida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari asosida umumlashtirildi. Olingan empirik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalar orasida chet tilini o'rganishdagi xavotir keng tarqalgan bo'lib, ularning sezilarli qismi o'rta va yuqori darajadagi xavotirni boshdan kechirmoqda. FLCAS natijalari ESP ta'limi sharoitida muloqotdan xavotirlanish, baholanishdan qo'rquv va sinfdagi umumiy xavotir komponentlari faol namoyon bo'lishini tasdiqladi. Ayniqsa, kasbiy nutq va maxsus terminologiyadan foydalanish bilan bog'liq vaziyatlar talabalar hissiy holatini kuchli darajada ta'sirlantiruvchi omil sifatida aniqlandi.

Tadqiqot davomida moliyaviy xavotir darajasi ham muhim psixologik omil sifatida e'tirof etildi. Talabalarning aksariyat qismida moliyaviy xavotir o'rta va yuqori darajada ekanligi aniqlanib, bu holat ularning o'quv jarayonidagi diqqatni jamlash, faol ishtirok etish va tilni samarali o'zlashtirish imkoniyatlarini cheklashi mumkinligi kuzatildi. Korrelyatsion tahlil natijalari moliyaviy xavotir va chet tilini o'rganishdagi xavotir o'rtasida o'rtacha-kuchli musbat bog'liqlik mavjudligini ($r = 0,62$; $p < 0,01$) ko'rsatdi. Bu esa moliyaviy bosim talabalar emotsional holatini kuchaytirib, tilni o'zlashtirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil natijalari moliyaviy xavotiri yuqori bo'lgan talabalar FLCAS bo'yicha sezilarli darajada yuqori ball to'plaganini ko'rsatdi. Bu holat moliyaviy barqarorlik talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchi, motivatsiyasi va chet tilida muloqot qilishga tayyorligi bilan uzviy bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari ESP ta'limini samarali tashkil etishda lingvistik va metodik omillar bilan bir qatorda hissiy va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Moliyaviy xavotirni kamaytirishga qaratilgan pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlovchi strategiyalar, qulay emotsional muhit yaratish hamda talabalarning individual

ehtiyojlarini inobatga olgan yondashuvlar ESP ta'limi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Horwitz E. K., Horwitz M. B., Cope J. Foreign language classroom anxiety // The Modern Language Journal. – 1986. – Vol. 70, No. 2. – P. 125–132.
- 2.MacIntyre P. D., Gardner R. C. Anxiety and second language learning: Toward a theoretical clarification // Language Learning. – 1989. – Vol. 39, No. 2. – P. 251–275.
- 3.MacIntyre P. D. How does anxiety affect second language learning? A reply to Sparks and Ganschow // The Modern Language Journal. – 1995. – Vol. 79, No. 1. – P. 90–99.
- 4.Krashen S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 p.
- 5.Gardner R. C. Social Psychology and Second Language Learning: The Role of Attitudes and Motivation. – London: Edward Arnold, 1985. – 208 p.
- 6.Dörnyei Z. Motivation in Second and Foreign Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 350 p.
- 7.Dörnyei Z., Ryan S. The Psychology of the Language Learner Revisited. – New York: Routledge, 2015. – 320 p.
- 8.Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 183 p.
- 9.Dudley-Evans T., St John M. J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 301 p.
- 10.Basturkmen H. Ideas and Options in English for Specific Purposes. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. – 180 p.
- 11.Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 300 p.
- 12.Spielberger C. D. Anxiety: State-Trait Anxiety Inventory. – Palo Alto, CA: Consulting Psychologists Press, 1983. – 220 p.
- 13.Pekrun R. Academic emotions in students' self-regulated learning and achievement: A program of qualitative and quantitative research // Educational Psychologist. – 2006. – Vol. 41, No. 2. – P. 91–105.
- 14.Putwain D. W. Test anxiety in UK schoolchildren: Prevalence and demographic patterns // British Journal of Educational Psychology. – 2007. – Vol. 77, No. 3. – P. 579–593.
- 15.Robotham D., Julian C. Stress and the higher education student: A critical review of the literature // Journal of Further and Higher Education. – 2006. – Vol. 30, No. 2. – P. 107–117